

Po'lat o'tda toblanadi, odam mehnatda

Metallurg Minbari



O'zbekiston metallurgiya kombinati aksiyadorlik jamiyatining gazetasi

2026-yil 23-aprel №7 (1569)
Gazeta 1992-yil 7-martdan nashr etilmoqda

"OCHIQLIK INDEKSI – 2025"

"O'zmetkombinat" AJ 2025-yil yakunlariga ko'ra 80,5 ball to'plab, "yashil" toifaga kirdi.

2 ➤

"INNOPROM. MARKAZIY OSIYO — 2026"

Sanoat ko'rgazmasi "O'zmetkombinat" AJ uchun xalqaro bozordagi mavqeini mustahkamlashda muhim bosqich bo'ldi.

3 ➤

CHEGARA BILMAS QALB

"Men bir xil emasman. Men turlichaman. Va aynan shuning uchun — men tirikman."

4 ➤

Strategik hamkorlik kengaymoqda

SANOAT KOOPERATSIYASIDA YANGI BOSQICH

"O'zmetkombinat" aksiyadorlik jamiyati delegatsiyasining Navoiy viloyatiga amalga oshirgan tashrifi mamlakat sanoat sohasidagi hamkorlik munosabatlarini yangi bosqichga olib chiqishda muhim voqea sifatida qayd etildi. Tashrif doirasida delegatsiya Navoiy kon-metallurgiya kombinati hamda bir qator yirik ishlab chiqarish korxonalari faoliyati bilan yaqindan tanishdi, shuningdek, o'zaro manfaatli hamkorlikni rivojlantirish masalalari yuzasidan muzokaralar o'tkazdi.

DOLZARB YO'NALISHLAR MUHOKAMA QILINDI

Muloqotlar davomida asosiy e'tibor ikki tomonlama hamkorlikni yanada mustahkamlash, qo'shma investitsiyaviy va innovatsion loyihalarni amalga oshirish imkoniyatlarini kengaytirishga qaratildi. Xususan, ishlab chiqarish jarayonlarini modernizatsiya qilish, texnologik yangilanishlarni joriy etish va samaradorlikni oshirish kabi dolzarb yo'nalishlar atroflicha muhokama qilindi. Tomonlar mazkur yo'nalishlarda o'zaro tajriba almashish va ilg'or yechimlarni amaliyotga tatbiq etish muhim ahamiyatga ega ekanini ta'kidlashdi.

Tashrifning amaliy qismida soha mutaxassis-lari ishtirokida tashkil etilgan uchrashuvlar alohida ahamiyat kasb etdi. Ularda ishlab chiqarishni boshqarishning zamonaviy usullari, resurslardan samarali foydalanish, mahsulot sifatini oshirish va xarajatlarni optimallashtirish kabi masalalar muhokama qilindi. Bu kabi muloqotlar korxonalar o'rtasidagi o'zaro ishonchni mustahkamlash bilan birga, kelgusidagi hamkorlik uchun mustahkam poydevor yaratishi bilan ahamiyatlidir.



TOMONLAR ISTIQBOLLI HAMKORLIK YO'NALISHLARINI BELGILADILAR

Delegatsiya tashrif doirasida Navoiy mashinasozlik zavodida ham bo'lib, korxonaning ishlab chiqarish quvvatlari va texnologik imkoniyatlari bilan batafsil tanishdi. Jumladan, quyimachilik, mexanik-yig'uv, stanoksozlik, qozon payvandlash, shuningdek, polimer va rezina mahsulot-

lari ishlab chiqarish sexlari faoliyati o'rganildi. Ushbu jarayonda texnologik bosqichlar ketma-ketligi tashkil etilishi, ishlab chiqarish samaradorligi va mahsulotlarni mahalliy-lashtirish darajasiga alohida e'tibor qaratildi.

Shu bilan birga, ehtiyot qismlar va butlovchi buyumlar ishlab chiqarish sohasida amalga oshirilayotgan ishlar tahlil qilinib, ushbu yo'nalishdagi hamkorlik imkoniyatlari muhokama qilindi. Mutasaddilar fikricha, mahalliyashtirish darajasini oshirish importga bo'lgan qaramlikni kamaytirish, ichki bozorni raqobatbardosh mahsulotlar bilan ta'minlash va eksport salohiyatini oshirishda muhim omil hisoblanadi.

Muzokaralar natijasida sanoat kooperatsiyasini rivojlantirish, ishlab chiqarish jarayonini uyg'unlashtirish va qo'shma loyihalarni amalga oshirish bo'yicha qator kelishuvlarga erishildi. Tomonlar istiqbolli hamkorlik yo'nalishlarini belgilab, ularni amalga oshirish mexanizmlarini ishlab chiqishga kelishib oldi. Bu esa kelgusida ishlab chiqarish hajmini oshirish va yangi mahsulot turlarini o'zlashtirish imkonini beradi.

➤2

KOMBINATDA AYOLLAR KENGASHI TASHKIL ETILDI

Kombinatimizda xotin-qizlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, mehnat jamoasidagi faolligini oshirish hamda boshqaruv va ishlab chiqarish jarayonlaridagi ishtirokini kengaytirish maqsadida yangi tashkiliy tuzilma — Ayollar kengashi faoliyati yo'lga qo'yildi. Mazkur tashabbus korxonada ijtimoiy muhitni yanada sog'lom va barqaror shakllantirish yo'lidagi muhim qadam sifatida e'tirof etilmoqda.

Ushbu tashabbus Bosh direktor Bahodir Abdullayev tomonidan ilgari surildi. Rahbariyat tomonidan xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash, ularning tashabbus va g'oyalari-

ni ro'yobga chiqarish, kasbiy salohiyatini namoyon etish uchun keng imkoniyatlar yaratishga alohida e'tibor qaratilayotgani korxonada inson kapitaliga berilayotgan yuksak e'tiborning amaliy ifodasidir.

Ayollar kengashi raisi etib tajribali mutaxassis Xaliqova Marhabo Abdumutalipovna tayinlandi. Uzoq yillik mehnat tajribasi, jamoa orasidagi hurmati hamda tashkilotchilik salohiyati inobatga olingan holda amalga oshirilgan ushbu tayinlov kengash faoliyatini samarali yo'lga qo'yishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Shuningdek, bu qaror xotin-qizlarning korxona hayotidagi o'zni va mavqeini yanada mustahkamlashga xizmat qilishi bilan

ahamiyatlidir.

Yangi tuzilma doirasida xotin-qizlarning ijtimoiy faolligini oshirish, ularni ma'naviy va moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlash, mehnat sharoitlarini yanada yaxshilash, bandlik va salomatlik bilan bog'liq masalalarga ko'maklashish, shuningdek, mavjud muammolarga tezkor va samarali yechim topish bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirilishi rejalashtirilgan.

Bundan tashqari, ayollarning kasbiy rivojlanishi, malakasini oshirish, zamonaviy kasb va ko'nikmalarni egallashi, rahbarlik lavozimlariga tayyorlash hamda turli ijtimoiy, madaniy va ma'rifiy loyihalardagi

ishtirokini kengaytirishga alohida e'tibor qaratiladi. Seminar-treninglar, uchrashuvlar, mahorat darslari va motivatsion tadbirlar tashkil etilishi ham ko'zda tutilgan.

Ayollar kengashi jamoadagi ijtimoiy hamjihatlikni mustahkamlash, sog'lom ma'naviy muhitni qaror toptirish, oila va mehnat uyg'unligini ta'minlash hamda gender tengligi tamoyillarini hayotga izchil tatbiq etishda muhim platforma bo'lib xizmat qiladi. Mazkur kengash faoliyati orqali kombinatda xotin-qizlarning nufuzi va faolligi yanada ortib, korxona taraqqiyotiga qo'shayotgan his-sasi yangi bosqichga ko'tarilishi kutilmoqda.

“Ochiqlik indeksi – 2025”

“O‘ZMETKOMBINAT” AJ —
“YASHIL” TOIFADA

O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tomonidan 2025-yil yakunlariga ko‘ra davlat organlari va tashkilotlarining ochiqlik darajasini baholash natijalari e‘lon qilindi.

Reyting doirasida jami 97 ta vazirlik, idora, muassasa hamda mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyati baholandi. Baholash 84 ta mezonni o‘z ichiga olgan 8 ta indikator asosida amalga oshirildi. Yakuniy natijalarga ko‘ra, 66 ta Davlat organi “yashil”, 22 tasi “sariq” va 9 tasi “qizil” toifaga kiritildi.

2024-yil natijalari bilan solishtirganda ijobiy dinamika kuzatilmoqda: yuqori ochiqlik darajasiga ega tashkilotlar soni ortib, “sariq” va “qizil” toifadagi ishtirokchilar ulushi kamaymoqda.

Shu bilan birga, 2022-yildagi ilk natijalar bilan taqqoslaganda, “yashil” toifadagi tashkilotlar soni 3,5 barobarga oshgani tizimli o‘zgarishlardan dalolat beradi.

Sanoat sektori korxonalari orasida “O‘zmetkombinat” AJ ham munosib natija qayd etdi. 2025-yil yakunlariga ko‘ra, korxona 80,5 ball to‘plab, “yashil” toifaga kirdi. Mazkur natija korxonada faoliyat ochiqligini ta‘minlash, jamoatchilik bilan ochiq muloqotni rivojlantirish hamda axborot siyosatini takomillashtirish borasida olib borilayotgan izchil ishlar samarasidir.

Eslatib o‘tamiz, mazkur reyting “Ochiqlik indeksi” baholash tizimi doirasida shakllantirildi. Ushbu tizim davlat organlari va tashkilotlari faoliyatining shaffofligini oshirish, jamoatchilik nazoratini kuchaytirish hamda ularning hisobdorligini ta‘minlashga qaratilgan. Baholash O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-154-son Farmoniga muvofiq har yili o‘tkaziladi.

**KORRUPSIYA - JAMIYAT TARAQQIYOTIGA
TAHDID SOLAYOTGAN OMIL**

Ko‘pincha “oddiy ishni tez bitirish” deb qabul qilinadigan pora yoki tanish-bilishchilik orqali masalani hal qilish holatlari aslida jamiyatning ildiziga bolta uradi. Bunday amaliyotlar tizimli ravishda davom etsa, adolat tamoyillari zaiflashadi, qonun ustuvorligi esa shaklda qolib ketadi.



Korrupsiya — bu mansab va vakolatdan shaxsiy manfaat yo‘lida noqonuniy foydalanishdir. U faqatgina pora olish yoki berish bilan cheklanmaydi. Xizmat vakolatini suiiste‘mol qilish, qarindosh-urug‘chilik yoki “o‘z odamlarini” qo‘llab-quvvatlash orqali imtiyoz berish kabi ko‘rinishlar ham shu illatning turli shakllaridir. Eng xavflisi, bunday holatlar jamiyatda teng imkoniyatlar tamoyilini izdan chiqaradi.

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda ushbu muammoga qarshi kurash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Xususan, davlat xizmatlarini raqamlashtirish orqali inson omilini qisqartirishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Bu esa ochiqlikni ta‘minlash bilan birga, noqonuniy kelishuvlar ehtimolini kamaytirishga xizmat qilmoqda.

Shuningek, ayrim sohalarda muammlar saqlanib qolmoqda. Masalan, ishga qabul qilish jarayonlarida yoki ayrim xizmatlardan foydalanishda qo‘shimcha to‘lovlar talab qilinishi haqidagi holatlar jamoatchilik noroziligiga sabab bo‘lmoqda. Bu esa, ayniqsa, yoshlar orasida adolatga bo‘lgan ishonchning susayishiga olib keliishi mumkin.

Qurilish va davlat xaridlari sohalari-da ham shaffoflikni kuchaytirish dolzarb vazifa bo‘lib qolmoqda. Chunki aynan shu yo‘nalishlarda ochiqlik yetishmasligi byudjet mablag‘larining samarasiz sarflanishi xavfini oshiradi.

Mutaxassislar ta‘kidlashicha, korrupsiyaga qarshi kurashishda faqat jazo choralari bilan cheklanib bo‘lmaydi. Eng muhim omil — jamiyatda ushbu illatga nisbatan mutlaqo murosasiz munosabatni shakllantirishdir. Buning uchun aholining huquqiy savodxonligini oshirish, ochiq axborot muhitini yaratish va fuqarolik nazoratini kuchaytirish talab etiladi.

Korrupsiya nafaqat iqtisodiy, balki ma‘naviy inqirozni ham keltirib chiqaradi. U ishonchni yemirib, taraqqiyotni sekinlashtiradi. Shu bois, unga qarshi kurash har bir fuqaroning mas‘uliyatiga aylanishi zarur. Faqat shu holda adolatli va barqaror jamiyatni barpo etish mumkin.

Mansur G‘AFUROV,
"Bekobod Klining xizmati"
MCHJ rahbari.

**SANOAT KOOPERATSIYASIDA
YANGI BOSQICH****MUHIM KELISHUVLAR
IMZOLANDI**

1 Tashrif yakunida “O‘zmetkombinat” AJ va “Navoiy kon-metallurgiya kombinati” AJ o‘rtasida strategik hamkorlikni mustahkamlashga qaratilgan kelishuv imzolandi. Ushbu kelishuv tomonlar o‘rtasidagi munosabatlarni sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qilishi kutilmoqda. Unga ko‘ra, innovatsion texnologiyalarni joriy etish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va qo‘shma investitsiya loyihalarini amalga oshirish ustuvor vazifalar sifatida belgilandi.

Shuningdek, “Navoiyuran”

DK va “O‘zmetkombinat” AJ o‘rtasida ham kooperatsiya aloqalarini rivojlantirish bo‘yicha muhim kelishuvga erishildi.

Mazkur hamkorlik doirasida uran qazib olish jarayonlarida qo‘llaniladigan burg‘alash uskunalarini mahalliyashtirishga qaratilgan qo‘shma investitsiya loyihalarini amalga oshirish rejalashtirilmoqda. Bu tashabbus yuqori texnologiyali mahsulotlarni mahalliy ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yishda muhim qadam sifatida baholanmoqda.

**Bahodir
RAHMONKULOV.**

**YO‘L HARAKATI XAVFSIZLIGI YUZASIDAN
PROFILAKTIK TADBIR O‘TKAZILDI**

“O‘zmetkombinat” AJ obyektlarida favqulodda vaziyatlar bo‘limi xizmatchilari ishtirokida yo‘l-transport hodisalarining oldini olishga qaratilgan profilaktik tadbir tashkil etildi. Tadbirdan ko‘zlangan asosiy maqsad harakat xavfsizligini ta‘minlash, xizmat va shaxsiy transport vositalaridan foydalanish madaniyatini oshirish hamda qonunchilik talablariga qat‘iy rioya etilishini kuchaytirishdan iborat bo‘ldi.

Tadbir doirasida amaldagi qonunchilik talablari, xususan, “Yo‘l harakati qoidalariga” rioya etishning ahamiyati atroflicha tushuntirildi. Asosiy e‘tibor qoidabuzarliklarning oldini olish, og‘ir oqibatlariga sabab bo‘luvchi yo‘l-transport hodisalarini kamaytirish masalalariga qaratildi.

Seminar davomida ishtirokchilarga transport vositalaridan foydalanishda xavfsizlik talablariga qat‘iy amal qilish, xizmat va shaxsiy avtotransport vositalarini doimiy texnik soz holatda saqlash zarurligi ta‘kidlandi. Shuningdek, transport vositalarini tegishli hujjatlar asosida boshqarish, mavsumiy texnik ko‘riklarni o‘z vaqtida o‘tkazish yuzasidan amaliy tavsiyalar berildi.

Tadbir davomida bo‘lim rahbariyati tomonidan belgilangan profilaktik chora-tadbirlar ijrosini to‘liq ta‘minlash masalalariga ham alohida e‘tibor qaratildi. Bu esa xizmat avtomobillaridan foydalanishda nazoratni kuchaytirish, harakat ishtirokchilarining mas‘uliyatini oshirish hamda yo‘l-transport hodisalarining oldini olishga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, maxsus transport vositalari — tez yordam, yong‘in-qutqaruv, ichki ishlar organlari hamda boshqa shoshilinch xizmat transportlarining yo‘l harakatidagi imtiyozlari haqida ham batafsil ma‘lumot berildi. Ushbu imtiyozlar inson hayotini saqlash, favqulodda holatlarda tezkor harakatlanish va oqibatlarni bartaraf etish maqsadida qonun bilan belgilanganligi alohida ta‘kidlandi.

Mazkur profilaktik tadbir yo‘l harakati xavfsizligini ta‘minlash, xizmat intizomini mustahkamlash hamda yo‘l-transport hodisalarining oldini olishga qaratilgan ishlar samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Bunday tadbirlarning muntazam o‘tkazilishi esa harakat ishtirokchilari o‘rtasida mas‘uliyat va huquqiy madaniyatni yanada yuksaltirishga zamin yaratadi.

Adham XAMDAMOV,
OFVB boshlig‘i o‘rinbosari.



“INNOPROM. Markaziy Osiyo — 2026”**“O‘ZMETKOMBINAT” AJ XALQARO SANOAT MAYDONIDA O‘Z SALOHIYATINI NAMOYON ETDI**

2026-yil 20-22-aprel kunlari Toshkent shahrida “INNOPROM. Markaziy Osiyo - 2026” Xalqaro sanoat ko‘rgazmasi tashkil etildi. Mintaqaning eng yirik sanoat platformalaridan biriga aylangan mazkur tadbir sanoat kooperatsiyasini kengaytirish, yangi texnologiyalarni joriy etish va investitsiyaviy hamkorlikni mustahkamlashga xizmat qildi.

Ko‘rgazmada O‘zbekiston, Rossiya, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston, Belarus, Turkiya, Xitoy kabi qator davlatlardan yetakchi kompaniyalar, investorlar hamda ishlab chiqaruvchilar faol ishtirok etdi. Loyiha aniq iqtisodiy vazifani — mamlakatlar o‘rtasidagi

faatli aloqalarni yanada kengaytirish imkoniyatlari ko‘rib chiqildi.

Ko‘rgazma davomida kombinat mutaxassislari tomonidan mahsulotlarning texnik xususiyatlari, sifati va raqobatbardoshligi yuzasidan atroflicha ma‘lumotlar berildi. Shuningdek, kombinatning ishlab chiqarish jarayonlarida zamonaviy texnologiyalardan foydalanish, mahsulot sifatini xalqaro standartlarga moslashtirish hamda eksport salohiyatini kengaytirish borasidagi yutuqlari alohida ta‘kidlandi.

Joriy yilgi “INNOPROM. Markaziy Osiyo - 2026” ko‘rgazmasi texnologik sheriklik yo‘nalishini



tovar ayirboshlash hajmini oshirishni ko‘zlagan. Ushbu muloqot maydoni sanoat sohasidagi ilg‘or yechimlar va innovatsion ishlanmalarni namoyish etish imkonini berdi.

Mazkur nufuzli tadbirida “O‘zmetkombinat” aksiyadorlik jamiyati ham munosib ishtirok etdi. Kombinats o‘zining zamonaviy ishlab chiqarish salohiyatini namoyon etib, keng turdagi mahsulotlarini taqdim qildi. Jumladan, turli xil prokat mahsulotlari, yuqori sifatli po‘lat zoldirlar, rangli metallar hamda maishiy ehtiyojlar uchun mo‘ljallangan sir-langan idishlar ko‘rgazma mehmonlarida katta qiziqish uyg‘otdi. Ko‘rgazma doirasida “O‘zmetkombinat” AJ Boshqaruvi raisi — Bosh direktor Bahodir Abdullayev ham ishtirok etib, ko‘plab nufuzli kompaniyalarning faoliyati va mahsulotlari bilan yaqindan tanishdi. Ushbu muloqotlar doirasida istiqbolli hamkorlik yo‘nalishlari muhokama qilinib, o‘zaro man-

yanada chuqurlashtirdi. Unda yirik sanoat korxonalari tomonidan ishlabchiqarishni raqamlashtirish, avtomatlashtirish va innovatsion boshqaruv tizimlarini joriy etishga qaratilgan ilg‘or yechimlar namoyish etildi. Shu bilan birga, shahar infratuzilmasini rivojlantirish, transport tizimlarini modernizatsiya qilish, sanoat robototexnikasi va sun‘iy intellekt asosidagi texnologiyalar ham tadbirning muhim qismiga aylandi.

Mazkur ko‘rgazma “O‘zmetkombinat” AJ uchun yangi hamkorlik aloqalarini yo‘lga qo‘yish, mahsulotlar eksportini kengaytirish va xalqaro bozordagi mavqeini mustahkamlashda muhim bosqich bo‘ldi.

Nigora AHMEDOVA.

**TAJIRIBALI DASTGOHCHI — ISHLAB CHIQARISH TAYANCHI**

Navi prokatlash bo‘linmasida har kuni bir xil jarayon takrorlangandek tuyuladi. Ammo bu jarayon ortida ko‘p yillik tajriba, sabr-toqat va aniqlik mujassam. Ana shunday fidoyi mutaxassislardan biri keng profilli dastgohchi Tohirjon Otaqulov.

U 2011-yildan buyon “O‘zmetkombinat”da samarali mehnat qilib kelmoqda. Yillar davomida o‘rtirgan tajribasi bugun uning ish uslubida yaqqol namoyon bo‘ladi. Tohirjon ishlaydigan “Atomat - 820” dastgohi go‘yo uning ishonchli hamkoriga aylangan. Ushbu uskuna yordamida u ta‘mirtalab vallarni qisqa muddatda, ba‘zan atigi bir-ikki kun ichida, qayta ishga tayyor holga keltiradi.

Bu ishda faqat texnikaning o‘zi yetarli emas. Aniq hisob-kitob, materialni his etish va boy tajriba uyg‘unlashgandagina yuqori natijaga erishiladi. Tohirjon aynan shu jihatlari bilan ajralib turadi. Shuning uchun uning mehnati bo‘linmada alohida qadrlanadi.

Har bir mutaxassisning ortida ustoz turadi. Tohirjon uchun bunday inson O‘tkirjon Abdurazzoqov. Ustozidan olgan saboqlar bugun ham uning faoliyatida o‘z aksini topmoqda. Endilikda esa Tohirjon o‘zi ham yosh kadrlarga yo‘l ko‘rsatmoqda. Yangi ish boshlagan dastgohchilarga kasb sirlarini bosqichma-bosqich o‘rgatib, “ustoz-shogird” an‘anasini munosib davom ettirmoqda.

Bo‘linmada Tohirjonning mehnati faqat ish hajmi bilan emas, balki sifat va barqarorlik bilan baholanadi. U bajarayotgan har bir vazifa ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligini ta‘minlashga xizmat qiladi.

Tohirjon Otaqulov kabi mutaxassislar ko‘p gapirmaydi, ammo o‘z mehnati bilan natija ko‘rsatadi. Aynan shunday insonlar tufayli korxonada barqarorlik, ishonch va sifat mustahkamlanadi.

28-aprel – Butunjahon mehnatni muhofaza qilish kuni

28-aprel – Butunjahon mehnatni muhofaza qilish kuni. Mazkur sana ishlab chiqarish jarayonida xodimlar hayoti va salomatligini asrash, xavfsiz hamda sog‘lom mehnat sharoitlarini yaratish masalalariga jamoatchilik e‘tiborini yanada kuchaytiradi. Ayniqsa, yirik sanoat korxonalarida mehnat xavfsizligini ta‘minlash barqaror rivojlanishning muhim sharti hisoblanadi. Shu ma‘noda “O‘zmetkombinat” AJda bu yo‘nalish ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilangan.

Bugungi kunda kombinatda ishlab chiqarish jarayonlarining barcha bosqichlarida mehnat-

MEHNAT XAVFSIZLIGI – USTUVOR VAZIFA

ni muhofaza qilish talablariga qat‘iy amal qilinmoqda. Korxonada zamonaviy texnika va texnologiyalarni joriy etish bilan bir qatorda, xavfsizlik standartlarini takomillashtirish, ish joylarida qulay va xavfsiz muhit yaratishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Har bir sex va bo‘limda xodimlarning sog‘lig‘i hamda mehnat sharoitlari doimiy monitoring asosida nazorat qilinadi.

“O‘zmetkombinat” AJda mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha tizimli ishlar yo‘lga qo‘yilgan. Xususan, xodimlar uchun muntazam o‘quv-seminarlar, amaliy treninglar va yo‘riqnomalar tashkil etilmoqda. Ish joylarida mavjud xavf omillarini aniqlash, ularni kamaytirish yoki bartaraf etish bo‘yicha profilaktik choralar izchil amalga oshirilmoqda. Texnika xavfsizligi qoidalariga rioya etilishi esa mas‘ul mutaxassislar tomonidan muntazam nazorat qilinadi.

Yangi ishga qabul qilingan xodimlar bilan ishlab chiqarish masalasi ham alohida ahamiyatga ega. Ular uchun maxsus moslashuv dasturlari, boshlang‘ich yo‘riqnomalar va amaliy ko‘nikma

mashg‘ulotlari o‘tkaziladi. Bu esa yosh mutaxassislarning xavfsiz ishlash malakasini shakllantirish, ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalarning oldini olishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Butunjahon mehnatni muhofaza qilish kuni munosabati bilan “O‘zmetkombinat” AJda targ‘ibot tadbirlari, davra suhbatlari, uchrashuvlar hamda ko‘rik-tanlovlar tashkil etilishi rejalashtirilgan. Mazkur tashabbuslar orqali xodimlar orasida xavfsizlik madaniyatini mustahkamlash, shaxsiy mas‘uliyat hissini oshirish ko‘zda tutilgan.

Mehnatni muhofaza qilish – bu shunchaki talab yoki ichki tartib emas. Bu inson qadri, xodim salomatligi va korxona samaradorligini ta‘minlaydigan strategik yo‘nalishdir. Har bir xodim xavfsizlik qoidalariga amal qilgan holda o‘zining ham, jamoasining ham farovon kelajagiga hissa qo‘shadi. Zero, xavfsiz mehnat – barqaror taraqqiyot garovidir.

Gulmira TASHMATOVA,
“O‘zmetkombinat” AJ sanoat xavfsizligi boshqarmasi boshlig‘i.

HIKMAT IZLAGANGA HIKMATDIR DUNYO

CHEGARA BILMAS QALB

U o'zini hech qachon bir xil inson deb his qilmagan. Ba'zi kunlari u kulgudan to'lib-toshar, hatto oddiy shamol ham unga qo'shiqdek tuyulardi. Ba'zida esa qalbining bir chetida og'ir soya paydo bo'lar, o'sha soya uni jimjitlikka chorlar edi.

U shunday inson ediki, lahza-da tortinchoq qizga aylanib qolar, gapirishga jur'ati yetmasdi. Keyin esa, kutilmaganda, haqiqatni yuziga aytishdan qo'rqmaydigan, betgachopar bir shaxs bo'lib chiqardi. Uning qahri ham qattiq edi, ammo mehri undan-da chuqurroq edi.

Bu ziddiyatlar bekorga emasdi. U hayotning turli ranglarini ko'rgan edi: ba'zida qattiq so'zlar, ba'zida esa iliq bag'ir. Shuning uchun ham uning qalbidagi chegara

bilmas tuyg'ular yashardi.

Kechqurun u kitob ochar edi. Sahifalar orasida u o'zini yo'qotar, birda Alisher Navoiy so'zlarida hikmat topar, birda Zahiriddin Muhammad Bobur bilan sayohat qilar, yana birda O'tkir Hoshimov asarlarida oddiy inson qalbini anglar edi. Har bir qahramon uning ichidagi yana bir "men"ni uyg'otardi.

Uning orzulari ham keng edi. U Parij ko'chalarida erkin yurishni, Londonda yomg'irli kunlarda sayr qilishni istardi. Ammo ba'zida unga oddiy avtobusda ketib, oynadan tashqariga qarab orzu qilishning o'zi ham baxtdek

tuyulardi.

Bahor kelganda u yashil dalalar bag'rida yotishni, shamol bilan suhbatlashishni yoqtirardi. Qishda esa qorbo'ron o'ynab, bolaligini yana his qilardi. U uchun baxt kattalikda emas, balki his qilishda edi.

Kechqurunlari oila davrasidagi kulgular, samimiy suhbatlar uning qalbiga ilqlilik baxsh etardi. U shu lahzalarda anglardi: inson qanchalik o'zgaruvchan bo'lmasin, uning haqiqiy uyi mehr ichidadir.

U o'zini tushunib yetgan bir kun shunday dedi:

"Men bir xil emasman. Men turli-chaman. Va aynan shuning uchun



men tirikman."

U yashashni sevardi. Juda qattiq sevardi.

Zulfiya ESONOVA.

SHIFOKOR OGOHLANTIRADI

MAVSUMIY KASALLIKLAR



Bahor fasli tabiat uyg'onishi bilan birga inson salomatligiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Havo haroratining tez-tez o'zgarib turishi organizmning moslashuv qobiliyatini susaytiradi va turli mavsumiy kasalliklarning ko'payishiga sabab bo'ladi. Shu davrda o'tkir respirator virusli infeksiyalar, gripp, angina va bronxit kabi xastaliklar ko'proq uchraydi.

Bahorning yana bir o'ziga xos jihati o'simliklar gullashi bilan bog'liq allergik kasalliklar, ya'ni pollinoz hisoblanadi. U ko'p hollarda burun bitishi, ko'z qichishishi, aksirish va umumiy holsizlik bilan kechadi.

Ayniqsa, allergiyaga moyil odamlarda bu holatlar kuchliroq namoyon bo'ladi. Shu bilan birga, qishdan keyin organizmda vitaminlar yetishmasligi kuzatiladi. Bu esa immunitetning pasayishiga olib kelib, insonni kasalliklarga nisbatan zaif qilib qo'yadi. Natijada oddiy shamollash ham uzoq davom etishi mumkin. Mutaxassislar bahor mavsumida sog'lom turmush tarziga rioya qilishni tavsiya etadi.

Vitaminlarga boy ovqatlanish, ko'proq meva-sabzavot iste'mol qilish, toza havoda sayr qilish va yetarli dam olish immunitetni mustahkamlashda muhim o'rin tutadi. Shuningdek, shamollashdan saqlanish va shaxsiy gigiyena qoidalariga amal qilish kasalliklarning oldini olishda muhim ahamiyatga ega.

Jahongir KIMSANOYEV,
"Metallurg" shahar
shifoxonasi terapevti.

FUTBOL: PRO-LIGA

"METALLURG" — YETAKCHILAR QATORIDA

PRO-liganing yangi mavsumida "Metallurg" jamoasi barqaror o'yin va ijobiy natijalari bilan e'tiborni tortmoqda. Futbolchilarimiz mavsumni safardagi ilk turda "Yaypan" jamoasini 2:1 hisobida mag'lub etti.

Ikkinchi tur doirasida "Respublika FA"ga qarshi o'tgan uchrashuvda mezbonlar, o'yin davomida ustunlikka ega bo'lganiga qaramay, yaratilgan imkoniyatlardan to'liq foydalana olmadi, va bahs 1:1 hisobidagi durang bilan yakunlandi.

15-aprel kuni "Metallurg" o'z maydonida TerDU jamoasini qabul qildi. Uchrashuvni boshidanoq mezbonlar tashabbusni qo'lga oldi va 13-daqiqada Navro'z Iminjonovning aniq zarbasi bilan hisob ochildi. Oradan ko'p o'tmay, jamoaviy harakatlar hamda samarali pressing natijasida Saidumarxon Saidnurillayev ustunlikni mustahkamladi — 2:0.

Ikkinchi bo'limda mezbonlar sur'atni biroz pasaytirganidan foydalangan mehmonlar safidagi Shahzod Bozorov hisobni qisqartirishga muvaffaq bo'ldi. Biroq bu gol "Metallurg"ni yanada faollashtirdi. 67-daqiqada Navro'z Iminjonov o'zining ikkinchi golini urib,

uchrashuv taqdiriga yakuniy nuqtani qo'ydi — 3:1.

To'rtinchi turda "Metallurg" o'z maydonida Buxoro davlat universiteti jamoasini ishonchli tarzda mag'lub etdi. Uchrashuv mezbonlar ustunligida o'tdi va hisobni Vladimir Bubanya ochdi. U Mirzohid G'afurovning jarima to'pidan amalga oshirgan uzatmasini bosh bilan darvozaga yo'lladi.

34-daqiqada Navro'zbek Iminjonovga nisbatan qo'pol qoidabuzarlik sodir etgani uchun raqib himoyachisi Behruz To'rayev maydondan chetlatildi. Belgilangan standart vaziyatdan so'ng Azim Ahmedov aniq zarba bilan hisobni 2:0 ga yetkazdi.

Ikkinchi bo'limda bosh murabbiy Ilhom Mo'minjonov tarkibida bir qator o'zgarishlarni amalga oshirdi. Uchrashuvning 85-daqiqasida Navro'zbek Iminjonov yakuniy hisobni o'rnatdi — 3:0.

To'rt tur yakunlariga ko'ra, 10 ochko jamg'argan "Metallurg" musobaqa jadvalida birinchi o'rinni egallab turibdi.

Beshinchi tur doirasida bekobodliklar 25-aprel kuni safarda "Paxtakor FJ" ga qarshi bahs olib boradi.

SO'RAGAN EDINGIZ...

TA'TILDAGI XODIMNI ISHDAN BO'SHATISH MUMKINMI?

- O'zbekiston Respublikasi MK 163-moddasiga muvofiq, xodim ta'tilda bo'lgan davrda ish beruvchi tashabbusi bilan mehnat shartnomasini bekor qilish taqiqlanadi.

Biroq ushbu qoidaning ayrim istisnolari ham mavjud. Xususan, korxona tugatilganda yoki yakka tartibdagi tadbirkor o'z faoliyatini yakunlaganda, xodim ta'tilda bo'lgan taqdirda ham mehnat shartnomasi bekor qilinishi mumkin. Muhim jihatlaridan yana biri – "ta'til" tushunchasining keng qamrovli ekanligidir. Mehnat kodeksining 213-moddasiga ko'ra, ta'til turlariga nafaqat yillik mehnat ta'ti-

li, balki ijtimoiy ta'tillar, qisman haq to'lanadigan hamda haq to'lanmaydigan ta'tillar ham kiradi. Shu bois, xodim qaysi turdagi ta'tilda bo'lishidan qat'i nazar, mazkur umumiy qoida amal qiladi.

Shu bilan birga, barcha holatlarda ham mazkur taqiq tatbiq etilmaydi. Qonunchilik mehnat shartnomasini boshqa asoslarga ko'ra bekor qilishga ham yo'l qo'yadi. Masalan, Mehnat kodeksining 158-moddasiga muvofiq, muddatli mehnat shartnomasining amal qilish muddati tugaganda, xodim ta'tilda bo'lgan bo'lsa ham shartnoma bekor qilinishi mumkin.

Shuningdek, 235-moddaga asosan, tomonlar kelishuviga ko'ra, xodimga foydalanilmagan mehnat ta'tili keyinchalik ishdan bo'shatish sharti bilan berilishi mumkin. Bunda ta'til muddati mehnat shartnomasining amal qilish davridan chiqib ketishi ham qonunga zid hisoblanmaydi.

Xulosa: Ish beruvchi tashabbusi bilan xodimni ta'til vaqtida ishdan bo'shatishga yo'l qo'yilmaydi. Biroq qonunda nazarda tutilgan ayrim holatlarda bunday cheklov amal qilmaydi.

Inomjon ESHONQULOV,
huquqshunos.



MUASSIS:
O'zbekiston metallurgiya
kombinati aksiyadorlik jamiyati.

www.uzbeksteel.uz

Muharrir v.b:
Bahodir RAHMONKULOV

TAHRIRIYAT: Bekobod shahar
"O'zmetkombinat"
aksiyadorlik jamiyatining Ijroiya
apparati joylashgan.
Tel: 10-19

Gazeta elektron shaklda
oyda ikki marta
chiqadi.

Gazeta tahririyat kompyuterida terilib,
sahifalandi.
Bichimi A-3.
ISSN 2181-645X

Sahifalovchi:
Nigora AXMEDOVA.

Toshkent viloyati Axborot va
ommaviy kommunikatsiyalar
boshqarmasi tomonidan 2015-
yil 6-mayda 03-006 raqam bilan
ro'yxatga olingan.